



BOLALARDA MEXANIK XOTIRANING RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI.

Usarova Muborak Xabibulla qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Pedagogika va jismoniy madaniyat
kafedrasi o'qituvchisi*

usarovamuborak5@gmail.com

+99894-770-79-20

Suvonqulova Shaxina Islomovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
talabasi*

Abstract: *This article examines the concept of memory, the characteristics of children's memory, the development of memory in preschool children, the main processes in the field of memory, figurative memory, imagination, and life issues.*

Абстрактный: *В статье рассматриваются понятие памяти, особенности детской памяти, развитие памяти у детей дошкольного возраста, основные процессы в сфере памяти, образная память, воображение, а также жизненные проблемы.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xotira haqida tushuncha, bola xotirasi xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarda xotiraning rivojlanishi, xotira sohasida asosiy jarayonlar, obrazli xotira tasavvurlar va turmush masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *xotira, obrazli xotira, hissiyot, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi-pedagog.*



Xotira - idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira individning o'z tajribalarida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga olishga xotira deb ataladi. Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflarini asarlarida uchraydi. Aristotel, Forobiy xotira bo'lishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, xotirani faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Insonlarning butun hayoti davomidagi taraqqiyoti, aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlana boshlaydi. Yosh bolalarda xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofdagi odamlarni va narsalarni tanishidan ko'rina boshlaydi. Buni biz o'ziga tanish bo'lgan narsalarni va yaqinlarini ko'rganida qiladigan harakatlaridan bilib olishimiz mumkin. Masalan, bola o'ziga yaqin odamni, onasi yoki oila a'zolaridan birini ko'rganida unga talpinadi yoki notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi, dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish va ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Ularda xotira ixtiyorsiz bo'ladi. Lekin o'zlarini e'tiborini tortgan, biron jihatdan qiziqtirgan, diqqatlarini o'ziga tortgan narsa va hodisalarni beixtiyor ravishda egalarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biron narsani eslarida olib qolishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Chunki ular hali maqsad qilishni bilmaydilar. Ular maqsadni faoliyat davomida o'zgartirib boradilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'lishi tasodifiy bir hol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi - pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Chunki bola xotirasining rivojlanishida ham tarbiyachi - pedagoglarning o'rni



beqiyos. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasi idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi.

Bola xotirasining rivojlanishida yana bir muhim jihat, nutqining o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bog'cha yoshidagi bolalar narsa va hodisalarni faqat ko'rish orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari bolalar kattalardan so'rab bilib olish, eshitish orqali ham o'z xotiralarini boyitadilar.

Ilk bolalik davridagi bolalarda xotiraning barcha xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda, yani ma'nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradi. Bu uning o'ziga xos jihatidir. Bolalarda ma'nosini tushunib esda olib qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, ilk bolalik davridagi bolalar o'zlari yoqtirgan hikolarining ayrim qahramonlarini yaxshi ko'radilar, ba'zilarini esa yomon ko'radilar. Bolalar yaxshi ko'rgan qahramonlariga o'xshashni, ulardek yasashni xohlaydilar. Aslida bolalar bu paytda yaxshi- yomonni uncha farqlay olmaydilar. Lekin shu qahramonlarning ba'zi odatlari, turmush tarzi, tashqi ko'rinishi yoqmaganligi uchun yomon ko'rib qoladilar. Tarbiyachi bu paytda bolalarga o'z yordamini berishi kerak. Yani bu qahramonlarni ijobiy tomonini ko'rsatib, ularni qiziqtirishi kerak.

Ilk bolalik davridagi xotira bir vaqtning o'zida juda ko'p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan kegan narsalarni yaxshi eslarida olib qoladilar. Uning asosiy sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning idroklari konkret xarakterga ega. Ikkinchidan, ularda hali nutq to'la - tekis shakllanmagan.

Obrazli xotira qayerda saqlanadi?



Ming yillar davomida tibbiyot xodimlari xotiraning saqlanish joyi bosh miya ekanligiga ishonar edilar. O'tgan asrda avval xotiradan ko'tarilgan voqealar haqidagi axborotni o'tmish qa'ridan yuzaga chiqarish qobiliyati uchun javobgar bo'lgan bosh miya nuqtalarini izlash ishlari boshlab yuborilgan edi. Lekin miya qancha tadqiq etilmasin, axborot to'plash va saqlash vazifasini bajaruvchi xotira katta odamlar va bolalar xotirasi bir biridan keskin farq qiladi. Sababi, ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bir qator psixologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega:

1 - bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk bolalik davridagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya'ni ularning nerv sistemasi haddan tashqari egiluvchan, ta'sitotga beriluvchandir ;

2 - bog'cha yoshdagi bolalar nerv sistemasi yengil, qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi.

3 - bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga, ya'ni hech qanday soha aniqlanmadi. Ma'lum bo'lishicha bu vazifani yaxlit miyaning o'zi uning yarim sharlari bajaradi.

Ushbu maqoladan olingan xulosa shuki, xotira xususiyatlari, xotira turlari turli yosh guruhlarida turlicha bo'ladi. Kattalar va bolalar xotirasi o'rtasidagi farq, nima sababdan bir biridan farq qilishi haqidagi tushunchalarga ega bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi". Toshkent- 2000-2005-yil
2. Z.Nishanova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va ilk o'qitish metodikasi" Toshkent – 2006
3. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" Toshkent - 2010.